OLIY TA'LIM TIZIMIGA "YASHIL" INVESTITSIYALARNI KIRITISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi o'qituvchisi, PhD.
https://doi.org/10.5281/zenodo.17287526

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida "yashil" investitsiyalar tamoyillarini manbalari va turlarini tadqiq etish, oliy ta'lim tizimidagi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, yashil texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalash, yashil kampuslar tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar orqali ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, oliy ta'lim, ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar, yashil kampus, ekologik madaniyat.*
Аннотация. *В данной статье рассматриваются направления внедрения принципов зеленой экономики в систему высшего образования, формирование экологической культуры среди студентов и достижения целей устойчивого развития. Также анализируются интеграция зеленых технологий в учебный процесс, создание зеленых кампусов и развитие экологических инноваций через научные исследования.*
Ключевые слова: *зеленая экономика, высшее образование, экологическая устойчивость, зеленые технологии, зеленый кампус, экологическая культура.*
Annotation. *This article explores the main directions for promoting green economy principles in higher education, focusing on the development of ecological awareness among students and the achievement of sustainable development goals. It also analyzes the integration of green technologies into the curriculum, the establishment of green campuses, and the advancement of ecological innovations through scientific research.*
Keywords: *green economy, higher education, ecological sustainability, green technologies, green campus, ecological culture.*

Kirish.

Jahon iqtisidiyotining global miqyosidagi keyingi taraqqiyoti, XXI asrda "yashil iqtisodiyot"ga o'tishmi barqaror taraqqiyotning muhim strategik maqsadi sifatida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ustuvorlik berishni taqozo etadi. Mazkur jarayonga oliy ta'lim muassasalani investitsion jozibadorligini oshirishda, yashil iqtisodiyotning muhim asosi hisoblangan "yashil" investitsiyalarni jalb qilishni ko'paytirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 10-iyun kuni bo'lib o'tgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida barqaror rivojlanish yo'lidan borayotgan davlatlar o'zaro hamkorlikni kuchaytirishi lozimligini ta'kidlab, mamlakatda "yashil" iqtisodiyot modeliga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni boshlanganini va ehtiyojga mos xorijiy investitsiyalarni kiritish zarurligini ta'kidladi. Jumladan, "biz uchun investisiya – faqatgina moliyaviy manba emas. Bu – texnologiya, bilim,

malakali kadrlar, xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga qo‘shilish, ya'ni, haqiqiy taraqqiyot demakdir” [1].

Shunday ekan, respublikamizda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish bo‘yicha yuqori malakali oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash imkoniyatini yaratadigan 200 dan ortiq davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalari xorijiy investitsiyalarni jalb etish, hukumatimizning asosiy strategik maqsadlaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Yashil iqtisodiyot masalasi qator olimlar va soha mutaxassislari tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Shunday ekan, “yashil iqtisodiyot bu – insoniyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un o‘zaro ta’sirini qo‘llab quvvatlaydigan va bir vaqtning o‘zida har ikkala ehtiyojni birday qondirishga harakat qiladigan iqtisodiyot metodologiyasidir”[2]. Xuddi shuningdek, respublikamizda yashil iqtisodiyotga o‘tish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha hukumat qarorlari mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ustuvor milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarori.

Yashil iqtisodiyotga asoslangan ta’lim modelini shakllantirishda birinchi navbatda o‘quv dasturlarini isloh qilish, yashil innovatsiyalarni ilgari surish hamda fanlararo integratsiyani ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishlar talabalarda ekologik muammolarga tizimli va kompleks yondashuv asosida qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, iqtisod, muhandislik va menejment sohalaridagi ta’lim dasturlarini ekologik mas’uliyat tamoyillariga asoslangan holda yangilash zarurati mavjud. Shu nuqtai nazardan, Yevropa Ittifoqining qator oliy o‘quv yurtlarida joriy etilgan “Yashil o‘quv dasturi” (Green Curriculum) modeli barqarorlikka yo‘naltirilgan, mahsulotga asoslangan o‘quv natijalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda[3].

Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarining yashil innovatsiyalar, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari va suv resurslarini boshqarish sohalaridagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirishi, ekologik muammolarga amaliy yechimlar ishlab chiqishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi[4]. Fanlararo yondashuvlarning qo‘llanilishi esa talabalarga iqtisodiyot, ekologiya, texnologiya va ijtimoiy fanlar bo‘yicha chuqur bilimlarni uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi hamda barqarorlik masalalariga tizimli va yaxlit qarash shakllanishiga xizmat qiladi[5].

Shuningdek, oliy ta’lim tizimi doirasida davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni mustahkamlash muhim amaliy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda.

---

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг тўртинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи, 10.06.2025. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг тўртинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи.

[2] O’zbekiston Respublikasi Sh.Mirziyoyevning Oliy majlis va O’zbekiston xalqiga Murojaatnozmasi bo‘yicha ilmiy ommabop risola. T.: “Ma’naviyat”, 2021. 95 bet

[3] Sterling, S. (2010). Transformative learning and sustainability: sketching the conceptual ground. Learning and Teaching in Higher Education, (5), 17-33.

[4] Cortese, A. D. (2003). The critical role of higher education in creating a sustainable future. Planning for Higher Education, 31(3), 15-22.

[5] Shriberg, M. (2002). Institutional assessment tools for sustainability in higher education. International Journal of Sustainability in Higher Education, 3(3), 254-270.

Bunday hamkorliklar ta’lim jarayonini real ekologik muammolar bilan boyitib, talabalarni amaliyotga yo‘naltirilgan loyihalarda faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, AQSh universitetlarida joriy etilgan “community-based sustainability projects” modeli bu borada muvaffaqiyatli tajriba sifatida e’tirof etiladi.

Nihoyat, universitet kampuslarini “yashil kampus” konsepsiyasiga mos ravishda modernizatsiya qilish orqali energiya samaradorligi, chiqindilarni saralash tizimlari, ekologik transport vositalari va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish oliy ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanish borasidagi institutsional majburiyatining amaliy va ramziy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi[6].

Mamlakatimizda yashil o‘quv dasturlarining ishlab chiqilishi, fanlararo integratsiya orqali ekologik ongni shakllantirish, ta’limda barqarorlik tamoyillarini metodologik asoslash, shuningdek, “yashil kampus” konsepsiyasining joriy etilishi bo‘yicha empirik va tizimli tadqiqotlar yetishmaydi. Shu bois, ushbu tadqiqot O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan muhim ilmiy sa’y-harakatlardan biri hisoblanadi.

Metodologiya.

Ushbu tadqiqotda quyidagi asosiy usullar, ya’ni tahlil (analiz) va sintez, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, abstrakt-mantiqiy tafakkur asosida xulosalar chiqarish hamda istiqbolli prognozlash metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning har bir bosqichida tanlangan metodologik yondashuvlar tadqiqot obyektining mohiyatini chuqur o‘rganish va ilmiy asoslangan natijalarga erishishni ta’minladi.


Tahlil va natijalar.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirishd moliyaviy barqarorlikka erishish va zarur investitsiyalarni jalb etishdan iborat. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda oliy ta’lim tizimida investitsiyalarni jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining investitsion jozibadorligini oshirishda “yashil” investitsiyalarni jalb etish muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bizning tadqiqot ishimizda, “yashil” investitsiyalarni jalb etishning muhim yo‘nalishlari asoslanildi. Shunday ekan, oliy ta’lim tizimida insoniyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha soha mutahassilarni tayyorlashga investitsiyalarni jalb etish, yashil investitsiyaning asosini tashkil etadi. Bizning nazarimizda, yashil investitsiyalarni oliy ta’limga jalb etish ikki yo‘nalishda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi yo‘nalish bu oliy ta’lim muassasalari tomonidan, insoniyat va tabiat o’rtasidagi uyg‘unlikni qo‘llab quvvatlovchi bir qator, soha yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotli mutahassislar tayyorlashga investitsiyalarni jalb etish. Ya’ni bular jumlasiga, “yashil” energetika, raqamli texnologiya va sun’iy intellekt iqtisodiyotini ta’minlovchi soha mutaxassislarini shakllantirishga investitsiyalarni kiritish, shuningdek, “yashil uglerod bozori” uchun chuqur malakali mutaxassislar tayyorlashga investitsiya kiritish hamda “yashil” transport va logistika sohasi va boshqa shu kabi sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga investitsiyalar kiritish.

“Yashil” investitsiya jalb etishning ikkinchi yo‘nalishi sifatida oliy ta’limda oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda tabiiy jarayonlardek sof-toza, “korrupsiyadan” xoli, shuningdek oliy ta’lim

[6] Leal Filho, W., Manolas, E. and Pace, P., 2015. The future we want: Key issues on sustainable development in higher education after Rio and the UN decade of education for sustainable development. *International Journal of Sustainability in Higher Education*, *16*(1), pp.112-129.


tizimiga kiritilayotgan “yashil” investitsiyalarni xususiy investorlari uchun emas, balki mamlakat kelajak maqsadlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar oqimi sifatida jalb etish tizimidan iborat (1 rasm).



1-rasm. Respublikada “yashil” investitsiyalarning maqsadli turlari[7]

Tadiqiqot natijalaridan kelib chiqadiki yashil loyihalarni amalga oshirish uchun mavjud moliyalashtirish manbalari oshirish imkoniyati kengayishi va diversifikatsiyalash orqali sezilarli yutuqlarga erishish mumkinligi mavjud.

Oliy ta’limda investitsiyalar ommaboblashgan davrda, oliy ta’lim “yashil investitsiyalar” quyidagi manbalardan iborat (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston oliy ta'lim muassasalariga yashil investitsiyalar manbalari[8]

Tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, davlat moliyalashtirish manbalari muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston hukumati tomonidan “yashil kampus” loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ajratilayotgan byudjet mablag‘lari, ekologik fondlar orqali moliyalashtirilayotgan energiya tejamkor infratuzilmalar — bu yo‘nalishda ilk ijobiy qadamlardir. Ammo, bu mablag‘lar ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi va ularning taqsimoti barcha OTMlar uchun teng darajada emas.

Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar – xususan Jahon banki, ADB, va BMTga qarashli agentliklar (masalan, UNDP) tomonidan ajratilayotgan grant va texnik ko‘maklar OTMlarning ekologik loyihalariga turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayrim universitetlar bu yo‘nalishda Erasmus+ va Horizon Europe kabi dasturlar orqali barqarorlikka oid ilmiy loyihalarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lmoqda. Ammo, bu loyihalarda ishtirok etish uchun zarur malaka va tashkiliy salohiyat barcha ta’lim muassasalarida mavjud emas.

Bundan tashqari, ijtimoiy sheriklik va xususiy sektor sarmoyalarini jalb qilish muhim o‘rin tutadi. Xususan, tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan “yashil kredit” liniyalari, korxona va kompaniyalar tomonidan laboratoriyalar, kutubxonalar, yashil energiya markazlari barpo etish holatlari mavjud. Bu model, ayniqsa, SamDU Arxitektura va Qurilish hamda SamISI kabi OTMlarda samarali namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga, barcha hududiy universitetlarda bu kabi hamkorlik mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan.

[7] Maullif tomonidan ishlab chiqilgan.
[8] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yana, universitet ichki fondlari va bitiruvchilarning homiylik mablag‘larini safarbar qilishdir. O‘z-o‘zini moliyalashtirishga o‘tgan OTMlar bu imkoniyatdan kengroq foydalanmoqda. Shuningdek, NNTlar va kraudfanding platformalari orqali jamoatchilik ishtirokida moliyalashtirish modeli ham ekologik loyihalarni rivojlantirishda qo‘llanishi mumkin.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari yashil texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shmoqda. Yashil texnologiyalar energiya tejamkorligini oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. Masalan, quyosh va shamol energiyasi tizimlari, suvni tejamkor ishlatish texnologiyalari va noldan chiqindi ishlab chiqarish tashabbuslari oliy ta’lim muassasalarida faol joriy etilmoqda. Bu nafaqat talabalarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtiradi, balki ularning ekologik ongini ham oshiradi.

Yashil kampuslar tashkil etish oliy ta’limda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bunday kampuslarda energiya tejovchi binolar, qayta tiklanadigan energiya tizimlari, barqaror transport vositalari va aqlli suv boshqaruvi tizimlari qo‘llaniladi. Shuningdek, “tirik laboratoriyalar” tashkil etilib, talabalar real hayotda ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha tajriba orttiradilar. Ushbu tashabbuslar uglerod neytralligi maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari toza texnologiyalar bo‘yicha tadqiqotlarni rivojlantirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha ilmiy loyihalarni amalga oshirish va yashil patentlarni ishlab chiqarish orqali ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda. Davlat va xususiy sektor bilan hamkorlikdagi loyihalar yashil texnologiyalarni tijoratlashtirishga yordam beradi.

Oliy ta’lim sohasida yashil investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari bir necha strategik yo‘nalishlarni qamrab oladi (2 rasm).



Rasm 2. Oliy ta’limga yashil investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari[9]

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda “yashil” investitsiyalar jalb etish bir qator strategik yo‘nalishlar orqali amalga oshirilishi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi, va bular quyidagilardan iborat:

birinchidan, barqaror taraqqiyot prinsiplariga asoslangan o‘quv dasturlarni ishlab chiqish hamda fanlararo yondashuvni ta’lim jarayoniga integratsiyalash;

ikkinchidan, energiya tejamkor va ekologik toza infratuzilmalarni shakllantirish orqali yashil kampus modelini joriy etish;

uchinchidan, toza texnologiyalar, iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanish sohalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni kengaytirish;

[9] Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

to‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati, mahalliy hokimiyat organlari hamda biznes sektori bilan kooperatsiyani kuchaytirish;

beshinchidan, ekologik yo‘naltirilgan tadbirkorlikni rag‘batlantirish va yashil startaplarni qo‘llab-quvvatlash;

oltinchidan, ekologik siyosat, boshqaruv va huquqiy me’yorlar bo‘yicha yetakchilik salohiyatini rivojlantirish;

yettinchidan esa, yashil iqtisodiyot sohasida malaka oshirish, kasbiy qayta tayyorlash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsaradiki, oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida “yashil” investitsiya tushunchalari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi aniqlangan. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida “yashil” investitsiyalarni investitsion jozibadorligini oshirish “yashil” iqtisodiyotni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa va takliflar

Oliy ta’lim tizimida yashil investitsiyalarni rivojlantirish barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biridir. Ushbu investitsiyalar nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki kelajak avlodni yashil tafakkur va amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Biroq, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida bu boradagi amaliy tashabbuslar hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Xususan, talabalar orasida yashil investitsiyalar mohiyatini tushunish, ularni farqlay olish va ularga tegishli moliyaviy qarorlar qabul qilish bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalarning shakllanmaganligi sezilmoqda.

Birinchidan, oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga yashil iqtisodiyot, ekologik moliya, barqaror rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha maxsus kurslarni joriy etish maqsadga muvofiq. Bu kurslar fanlararo yondashuv asosida tuzilgan bo‘lib, iqtisod, ekologiya, texnologiya va huquqiy bilimlarni birlashtirgan holatda taqdim etilishi lozim.

Ikkinchidan, yashil kampus konsepsiyasini amaliyotga joriy qilish zarur. Bu esa energiya tejamkor infratuzilmalar, quyosh va shamol kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan tizimlar, chiqindilarni qayta ishlash, suv tejash texnologiyalari kabi yechimlarni o‘z ichiga oladi. Bunday tashabbuslar nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki talabalarga real yashil texnologiyalarni amalda ko‘rish va o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchidan, ilmiy tadqiqotlarga ajratiladigan mablag‘lar va grantlarni oshirish orqali toza texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar va barqaror infratuzilma bo‘yicha ilmiy izlanishlarni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, xalqaro grantlar va fondlar bilan hamkorlik qilish orqali qo‘shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb etish tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, davlat, xususiy sektor, nodavlat notijorat tashkilotlari va xalqaro institutlar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish orqali yashil investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish bo‘yicha tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish kerak. Bu esa nafaqat texnologik yechimlarni jalb etadi, balki boshqaruv va moliyaviy mexanizmlarni ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, talabalarda moliyaviy savodxonlik, xususan yashil moliya haqida tushunchalarni shakllantirish muhim. Shu maqsadda, yashil moliyaviy instrumentlar (masalan, yashil obligatsiyalar, ESG investitsiyalar) bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va qisqa muddatli sertifikat dasturlarini joriy etish kerak.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari nafaqat ekologik jihatdan barqaror tizimga aylanishi, balki yashil iqtisodiyotda yetakchi kadrlar tayyorlaydigan ilmiy-amaliy markazlarga aylanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ISHLATILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг тўртинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи, 10.06.2025. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг тўртинчи Тошкент халқаро инвестиция форумидаги нутқи.
2. Sterling, S., 2011. Transformative learning and sustainability: Sketching the conceptual ground. *Learning and teaching in higher education*, *5*(11), pp.17-33.
3. Cortese, A.D., 2003. The critical role of higher education in creating a sustainable future. *Planning for higher education*, *31*(3), pp.15-22.
4. Shriberg, M., 2002. Institutional assessment tools for sustainability in higher education: strengths, weaknesses, and implications for practice and theory. *Higher education policy*, *15*(2), pp.153-167.
5. Leal Filho, W., Manolas, E. and Pace, P., 2015. The future we want: Key issues on sustainable development in higher education after Rio and the UN decade of education for sustainable development. *International Journal of Sustainability in Higher Education*, *16*(1), pp.112-129.